



G'AFUR ABDUMAJIDOV – ILM VA ADOLAT UYG'UNLIGINING YORQIN TIMSOLI

Hafizov Diyorbek Zarif o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil-sudlov fakulteti 2-kurs talabasi
hafizovdiyorbek@5gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqola G'afur Abdumajidov hayoti, ilmiy va pedagogik faoliyatini yoritadi. U jinoyat huquqi va kriminalistika nazariyasini rivojlantirdi, konstitutsiyaviy islohotlarga hissa qo'shdi va ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi. Maqola uning ilmiy merosi va huquqiy davlat qurishdagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *G'afur Abdumajidov, jinoyat huquqi, kriminalistika, huquqshunoslik, konstitutsiyaviy islohotlar, pedagogik faoliyat, ilmiy meros*

Аннотация: *Статья посвящена жизни и научно-педагогической деятельности G'afur Abdumajidov. Он развил теорию уголовного права и криминалистики, участвовал в конституционных реформах и подготовил многих учеников. Статья кратко освещает его научное наследие и роль в становлении правового государства.*

Ключевые слова: *Гафур Абдумаджидов, уголовное право, криминалистика, юриспруденция, конституционные реформы, педагогическая деятельность, научное наследие*


Abstract: *The article highlights the life and academic-pedagogical contributions of G'afur Abdumajidov. He advanced criminal law and criminology theory, contributed to constitutional reforms, and mentored many students. The article provides a brief overview of his scholarly legacy and role in building the rule of law.*

Keywords: *Gafur Abdumajidov, criminal law, criminology, jurisprudence, constitutional reforms, pedagogical work, scholarly legacy*

Har bir mamlakat huquqshunoslik tarixida o'z ilmiy maktabi va mustahkam qarashlari bilan butun bir davr taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan olimlar yetishib chiqadi. O'zbekiston yuridik fani taraqqiyotida ham shunday siymolar mavjudki, ularning hayot yo'li va kasbiy faoliyati murakkab tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, "Shuhrat" medali sohibi G'afur Abdumajidov ana shunday fidoyi va serqirra olimlardan biridir.⁸⁶

U jinoyat huquqi va kriminalistika sohalarida puxta ilmiy maktab yaratish bilan bir qatorda, konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida ham faol ishtirok etdi. Uning faoliyati ilmiy izlanish, qat'iyat, boy amaliy tajriba hamda adolat tamoyillariga sadoqatning yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. G'afur Abdumajidov 1928-yil 28-iyunda Samarqand

⁸⁶ UzPedia. Abdumajidov G'afur.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shahrida tavallud topgan. Tarixiy va ilmiy muhitga boy maskanda ulg‘ayishi unda bilimga bo‘lgan qiziqishni erta uyg‘otdi. 1943–1945-yillarda Respublika yuridik bilim yurtida tahsil olib, sud organlarida dastlabki mehnat faoliyatini boshlagan. 1948-yilda Toshkent yuridik institutini tamomlab, prokuratura organlarida ishlay boshladi.⁸⁷ Shundan so‘ng uning butun faoliyati jinoyatlarni tergov qilish va qonun ustuvorligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘ldi. 1951–1957-yillarda O‘zbekiston SSR prokuraturasi tizimida o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchi sifatida faoliyat yuritdi. U ko‘plab murakkab jinoyat ishlarini tergov qilgan va professional faoliyati davlat tomonidan yuqori baholangan.

G‘afur Abdumajidov Leningrad davlat universitetida aspiranturada tahsil olib, 1961-yilda nomzodlik, 1983-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning ilmiy izlanishlari jinoyatlarni tergov qilish nazariyasi, jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish hamda sud-huquq tizimini isloh etish masalalariga bag‘ishlangan⁸⁸. Professor sifatida u o‘zbek huquqshunoslik maktabining shakllanishi va rivojiga katta hissa qo‘shdi.

U turli yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalari va IIV tizimida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. 1995–2000-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi sifatida faoliyat yuritgan. Keyinchalik Toshkent davlat yuridik institutida professor sifatida faoliyat olib borib, ko‘plab shogirdlar tayyorladi. Ba‘zi manbalarda aytilishicha ustozning shogirdlari soni 40 dan ortiq bo‘lib, ularning aksariyati davlat va jamiyatning turli sohalarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi. “Jinoyatlarni tergov qilish. Protsessual-huquqiy tadqiqot” nomli monografiyasi hamda bir qator darsliklari bugungi kunda ham muhim ilmiy manba sifatida foydalanilmoqda.⁸⁹

Mustaqillik yillarida u Konstitutsiyaviy komissiya tarkibida ishtirok etib, sud mustaqilligi va inson huquqlarini himoya qilish tamoyillarini ilgari surdi. Bugungi kunda Toshkent davlat yuridik universitetida “Abdumajidov saboqlari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarning o‘tkazilishi uning ilmiy merosi davom etayotganini ko‘rsatadi.⁹⁰ 1987-yilda unga “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni berilgan, 1995-yilda esa “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. U 2013-yil 28-mart kuni vafot etgan. Uning ilmiy merosi bugungi huquqshunoslik rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.


G‘afur Abdumajidov hayoti oddiy biografiya emas, balki o‘chmas huquqiy merosdir. U jinoyat huquqi va kriminalistika nazariyasini boyitdi, konstitutsiyaviy islohotlarga hissa qo‘shdi va butun bir avlod yuristlarini tarbiyaladi. Ustoz ko‘p yillar davomida xalqaro ilmiy maydonlarda mamlakatimiz yuridik fanining nufuzini yuksaltirish yo‘lida samarali faoliyat olib bordi. Xususan, uning ilmiy asarlari nafaqat o‘zbek va rus tillarida,

⁸⁷ Umarova, N. (2025). Abdumajidov Gafur Abdumajidovich: A Distinguished Legal Scholar of Uzbekistan. Наука и инновация.

⁸⁸ Qomus.info. Abdumajidov.

⁸⁹ Vapayev, K. M. (2025). O‘zbekiston huquqshunoslik fani taraqqiyotida G‘afur Abdumajidovning o‘rni.

⁹⁰ Tashkent State University of Law. Lessons of Abdumajidov Conference News.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

balki ingliz, nemis hamda boshqa xorijiy tillarda ham nashr etilgan. Shuningdek, Moskva, Berlin, Vashington va dunyoning boshqa ko'plab shaharlarida o'tkazilgan ilmiy anjumanlarda dolzarb masalalar yuzasidan ma'ruzalar bilan ishtirok etgan. Shu bois ustoz nafaqat milliy huquqshunoslik ilmining yetuk namoyandasi, balki o'z yo'nalishi bo'yicha xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan, keng qamrovli bilim sohibi va salohiyatli olim sifatida tanilgan. Bugungi sud-huquq islohotlari va huquqiy davlat qurish jarayonlari uning ilgari surgan g'oyalari bilan mushtarakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uzpedia. Abdumajidov G'afur
2. Umarova, N. (2025). Abdumajidov Gafur Abdumajidovich: A Distinguished Legal Scholar of Uzbekistan. Наука и инновация.
3. Qomus.Info Abdumajidov
4. Vapayev, K. M. (2025). O'zbekiston huquqshunoslik fani taraqqiyotida G'afur Abdumajidovning o'rni.
5. Tashkent State University of Law. Lessons of Abdumajidov Conference News.

